



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	



O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Davletov Ikrom Raximberganovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Buxgalteriya hisobi kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)
Orcid: 0000-0002-8311-7890

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda biznes birlashuvlarini hisobga olish amaliyoti hamda MHXS (IFRS) 3 "Biznes birlashuvlari" standarti talablari o'rtasidagi farqlar tahlil qilingan. Tadqiqotda milliy normativ-huquqiy baza va xalqaro standartlar qiyosiy o'rganilib, biznes birlashuvlarini hisobga olishning asosiy muammolari aniqlangan. Jumladan, sotib olish usulini qo'llash, haqqoniy qiymatda baholash, gudvillni hisobga olish va sotib olish qiymatini taqsimlash bilan bog'liq metodologik masalalar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida 23-sonli BHMSni MHXS (IFRS) 3 talablari asosida takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: biznes birlashuvlari, MHXS (IFRS) 3, qayta tashkil etish, sotib olish usuli, haqqoniy qiymat, gudvil, sotib olish qiymatini taqsimlash, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, korporativ integratsiya, moliyaviy hisobot.

Аннотация. В данной статье проведён анализ различий между практикой учета объединений бизнеса в Узбекистане и требованиями стандарта МСФО (IFRS) 3 «Объединения бизнеса». В ходе исследования выполнено сравнительное изучение национальной нормативно-правовой базы и международных стандартов, а также выявлены основные проблемы учета объединений бизнеса. В частности, проанализированы методологические вопросы, связанные с применением метода приобретения, оценкой по справедливой стоимости, учетом гудвилла и распределением стоимости приобретения. По результатам исследования разработаны практические предложения по совершенствованию НСБУ № 23 на основе требований МСФО (IFRS) 3.

Ключевые слова: объединения бизнеса, МСФО (IFRS) 3, реорганизация, метод приобретения, справедливая стоимость, гудвилл, распределение стоимости приобретения, консолидированная финансовая отчетность, корпоративная интеграция, финансовая отчетность.

Abstract. This article analyzes the differences between the accounting practices of business combinations in Uzbekistan and the requirements of IFRS 3 *Business Combinations*. The study provides a comparative analysis of the national regulatory framework and international standards and identifies the main challenges in accounting for business combinations. In particular, methodological issues related to the application of the acquisition method, fair value measurement, goodwill recognition, and purchase price allocation are examined. Based on the findings, practical recommendations were developed to improve National Accounting Standard No. 23 in accordance with the requirements of IFRS 3.

Keywords: business combinations, IFRS 3, reorganization, acquisition method, fair value, goodwill, purchase price allocation, consolidated financial statements, corporate integration, financial reporting.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlari va transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi hamda raqamli transformatsiya natijasida biznes birlashuvlari va qo'shib olish (Mergers and Acquisition – M&A) jarayonlari korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, yangi bozorlarga kirish va innovatsion texnologiyalarni jalb etishning muhim vositasiga aylanmoqda. Raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi va transchegaraviy investitsiyalar hajmining ortishi natijasida M&A operatsiyalarining iqtisodiy ahamiyati yanada kuchaymoqda. Natijada biznes birlashuvlari zamonaviy korporativ boshqaruvning muhim instrumenti sifatida shakllanmoqda.

Global M&A bozoridagi o'zgarishlar ushbu jarayonlarning jadal rivojlanayotganligini tasdiqlaydi. PwC ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda global M&A bitimlari qiymati 2023-yilga nisbatan 5 foizga oshgan bo'lib, texnologiya, energetika va moliyaviy xizmatlar sohalaridagi yirik bitimlar bozor faolligini ta'minlagan. 2025-yilda esa global M&A bozori sezilarli tiklanib, bitimlar qiymati qariyb 4,9 trillion AQSh dollariga yetgan va 2024-yilga



nisbatan 40 foizdan ortiq o'sgan. LSEG ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yakunida M&A bozori hajmi 4,6 trillion AQSh dollaridan oshib, so'nggi yillardagi eng yuqori natijalardan birini qayd etgan. Mazkur ko'rsatkichlar korxonalarini qayta tashkil etish va biznes birlashuvlarini hisobga olishga doir xalqaro talablarni takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

M&A operatsiyalarining kengayishi ularni moliyaviy hisobotlarda ishonchli aks ettirish zaruratini kuchaytirmoqda. Xalqaro amaliyotda mazkur jarayonlarni hisobga olishning asosiy metodologik asosi sifatida MHXS (IFRS) 3 «Biznes birlashuvlari» standarti qo'llaniladi. Ushbu standart sotib olingan aktiv va majburiyatlarni haqqoniy qiymatda baholash, gudvillni aniqlash hamda moliyaviy hisobotlarda taqqoslanuvchan axborotni shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, davlat ulushi mavjud korxonalarini transformatsiya qilish, kapital bozorlarini rivojlantirish va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga bosqichma-bosqich o'tish jarayonlari biznes birlashuvlari hisobini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, korxonalarini qo'shib yuborish, qo'shib olish, ajratib chiqarish va boshqa qayta tashkil etish shakllarida moliyaviy hisobotlarni tuzishning xalqaro tajribasini o'rganish hamda uni milliy amaliyotga moslashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda biznes birlashuvlarini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish bo'yicha mavjud uslubiy yondashuvlar IFRS 3 talablarini to'liq qamrab olmaydi. Shu munosabat bilan biznes birlashuvlarini hisobga olish bo'yicha xalqaro tajribani tahlil qilish, IFRS 3 talablarining amalda qo'llanilish xususiyatlarini baholash hamda ularni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon iqtisodiyotida korporativ integratsiya jarayonlarining kengayishi natijasida biznes birlashuvlarini hisobga olish masalasi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot sohasidagi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Yirik kompaniyalar o'rtasidagi qo'shib olish va qo'shilish jarayonlarining o'sishi mazkur operatsiyalarni moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirishni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan MHXS (IFRS) 3 «Biznes birlashuvlari» standarti biznes birlashuvlarini tan olish, baholash va hisobotlarda aks ettirishning yagona xalqaro metodologik asosini shakllantirdi.

Ilmiy adabiyotlarda biznes birlashuvlarining asosiy maqsadi iqtisodiy sinergiyaga erishish, bozor ulushini kengaytirish va kompaniya qiymatini oshirish bilan izohlanadi. Khan, Al-Amri va Rauf biznes birlashuvlarining moliyaviy hisobot va korporativ boshqaruvga ta'sirini tahlil qilib, IFRS 3 talablarining qo'llanilishi moliyaviy axborotning qiymatga muvofiqligi, taqqoslanuvchanligi va ishonchligini oshirishini asoslab berganlar. Mualliflar, shuningdek, biznes birlashuvlari natijasida mulkchilik tuzilmasi, boshqaruv mexanizmi va korporativ nazorat tizimlarida muhim o'zgarishlar yuz berishini ta'kidlaydilar. Biroq mazkur tadqiqotlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda IFRS 3 talablarini milliy hisob tizimiga moslashtirish muammolari yetarli darajada yoritilmagan.

Biznes birlashuvlarini hisobga olishda adolatli qiymat va gudvill hisobining ahamiyati ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Hamberg va hammualliflar IFRS 3 joriy etilganidan keyin gudvillni amortizatsiya qilish amaliyoti bekor qilinib, qadrsizlanish testlari qo'llanilishi hisobotning iqtisodiy mazmunini kuchaytirganligini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, Glaum va boshqalar gudvill qadrsizlanishini baholash jarayonida subyektiv qarorlarning yuqori ulushi hisobot ishonchligiga ta'sir qilishi mumkinligini qayd etadilar. Bepari va Mollik tadqiqotlarida esa sotib olish bahosini taqsimlash (Purchase Price Allocation) jarayonida nomoddiy aktivlarni alohida baholash investorlar uchun axborotning foydaliligini oshirishi asoslab berilgan.

Xalqaro tadqiqotlarda IFRS 3 standartining eng muhim jihatlaridan biri sifatida sotib olish usuli (acquisition method) alohida e'tirof etiladi. Ushbu usul sotib oluvchini aniqlash, sotib olish sanasini belgilash, identifikatsiya qilinadigan aktiv va majburiyatlarni haqqoniy qiymatda baholash hamda gudvillni hisoblash bosqichlarini qamrab oladi. PwC va Deloitte ekspertlari tomonidan tayyorlangan metodik qo'llanmalarda mazkur yondashuv biznes birlashuvlarining iqtisodiy mazmunini moliyaviy hisobotlarda to'liqroq aks ettirish imkonini berishi qayd etilgan.

Biznes birlashuvlarining natijalari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarda o'z aksini topadi. Shu bois IFRS 3 talablari amalda IFRS 10 «Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar» standarti bilan uzviy bog'liq holda qo'llaniladi. Ilmiy tadqiqotlarda konsolidatsiyalashgan hisobotlar korporativ guruhning aktivlari, majburiyatlari va moliyaviy natijalarini yagona iqtisodiy subyekt sifatida aks ettiruvchi muhim axborot manbai sifatida baholanadi. Bunda ichki operatsiyalarni eliminatsiya qilish, nazorat qilinmaydigan ulushlarni hisobga olish va yagona hisob siyosatini qo'llash hisobotning ishonchligini ta'minlaydi.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham biznes birlashuvlari va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning ayrim jihatlari tadqiq qilingan. Xususan, Ismanov konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishning nazariy asoslarini tahlil qilib, uni korxonalar guruhining haqiqiy moliyaviy holatini aks ettiruvchi muhim axborot tizimi sifatida baholagan. Eraliev esa konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishning metodologik



asoslarini takomillashtirish masalalarini o'rganib, xalqaro standartlar talablarini milliy amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqqan.

Korxonalarni qayta tashkil etish jarayonlarining huquqiy va iqtisodiy jihatlari Mavlonov ishlarida tadqiq qilingan bo'lib, muallif qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'linish va ajratib chiqarish shakllarining iqtisodiy mazmunini ochib bergan. Abdurasulov esa korxonalarni qo'shib yuborish jarayonida moliyaviy hisobotlarni MHXS talablari asosida shakllantirish masalalarini tadqiq qilib, aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymatda baholash, gudvillni aniqlash va tugatish balansini shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan. Mahalliy tadqiqotlarda qayta tashkil etishning huquqiy jihatlari va konsolidatsiyalashgan hisobotlar masalalari o'rganilgan bo'lsa-da, IFRS 3 standartining amaliy qo'llanilishi, goodwill hisobi va Purchase Price Allocation mexanizmlari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Tahlil qilingan manbalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro tadqiqotlarda IFRS 3 standartining nazariy asoslari, gudvill hisobi, adolatli qiymatni baholash va sotib olish usulini qo'llash masalalari keng o'rganilgan. Milliy tadqiqotlarda esa asosan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va qayta tashkil etishning umumiy jihatlarga e'tibor qaratilgan. Biroq O'zbekiston korxonalarini qayta tashkil etish amaliyotida IFRS 3 talablarini qo'llash mexanizmi, sotib olish bahosini taqsimlash, gudvillni hisobga olish va biznes birlashuvlari natijalarini konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning uslubiy jihatlari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy tahlil, kontent tahlil, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv hamda institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. Axborot manbalari sifatida IFRS Foundation tomonidan nashr etilgan IFRS 3 va IFRS 10 standartlari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 23-sonli BHMS, ilmiy maqolalar va xalqaro auditorlik tashkilotlari materiallari olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarni qayta tashkil etish jarayonini tartibga soluvchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ularda qayta tashkil etishni tartibga solishning normativ-huquqiy jihatlari batafsil yoritilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49-moddasiga muvofiq: «Yuridik shaxsni qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) uning muassislari (ishtirokchilari) yoki ta'sis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organi qaroriga muvofiq amalga oshirilishi mumkin». Demak, korxonalar ta'sischilari yoki uni ta'sis etgan organ muayyan vaziyatdan kelib chiqqan holda qayta tashkil etishning maqbul shaklini tanlaydi. Mazkur norma qayta tashkil etish shakllarini belgilab bersa-da, ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish metodologiyasini ochib bermaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish» nomli 23-sonli BHMSga muvofiq: «Tashkilotni qayta tashkil etish uning ta'sischilari (ishtirokchilari) yoki ta'sis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin: a) qo'shib yuborish; b) qo'shib olish; v) bo'lish; g) ajratib chiqarish; d) o'zgartirish». Yuridik shaxslarni qayta tashkil etish jarayonini tartibga solish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lishiga qaramasdan, ushbu jarayonni amalga oshirishni buxgalteriya hisobida aks ettirishning uslubiy jihatlari takomillashtirishga ehtiyoj mavjud (1-jadval).

1-jadval

Yuridik shaxslarni qayta tashkil etish shakllari va ularning xususiyatlari¹

Shakllari	Belgilari	Qayta tashkil etish mohiyatining bayoni
Qo'shib yuborish	$A + B = S$	A va B korxonalar o'z faoliyatlarini to'xtatadilar, ularning huquq va majburiyatlari yangidan tashkil etilgan S korxonaga o'tadi
Qo'shib olish	$A + B = A$	B korxonalar o'z faoliyatini tugatib, uning huquq va majburiyatlari A korxonaga o'tadi
Bo'lish	$S = A + B$	S korxonalar o'z faoliyatini tugatib, uning huquq va majburiyatlari A va B korxonalariga o'tadi
Ajratib chiqarish	$S = S + A + B$	S korxonalar faoliyati tugatilmagan, huquq va majburiyatlarining bir qismi A va B korxonalariga o'tkaziladi
O'zgartirish	$A = A^*$	Qayta tashkil etilgan A korxonaning barcha huquq va majburiyatlari yangidan tashkil etilgan A* korxonaga o'tadi

1 Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va 23-son "Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish" nomli BHMS asosida tuzilgan



Jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha, qayta tashkil etishning barcha shakllarida huquq va majburiyatlarning huquqiy vorislik asosida o'tishi kuzatiladi. Biroq mazkur jarayonlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirilish tartibi yetarli darajada metodik jihatdan tartibga solinmagan. Bu esa qayta tashkil etish jarayonlarida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish bo'yicha yagona metodologik yondashuvni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Buxgalteriya hisobida aks ettirish maqsadlari uchun esa yuridik shaxslarni qayta tashkil etishni amalga oshirish jarayonidagi faktlar tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Xususan, O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti «Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish» nomli 23-sonli BHMSning 10-bandida bunday hujjatlar ro'yxati keltirilgan:

«Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish quyidagilar mavjud bo'lgan holda amalga oshiriladi:

- a) qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonalarining ta'sis hujjatlari;
- b) O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan va mazkur BHMSning 7-bandida ko'rsatilgan ta'sischi qarori yoki tegishli organlarning qayta tashkil etishga roziligi;
- v) O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq qo'shib yuborish yoki qo'shib olish to'g'risidagi shartnomalar;
- g) topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi;
- d) O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq, ro'yxatga oluvchi organning quyidagilar haqida yozuvni Reestrda kiritganini tasdiqlovchi hujjat: qo'shib yuborish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida qayta tashkil etishda yangi vujudga kelgan tashkilotlar haqida; qo'shib olish shaklidagi qayta tashkil etishda qo'shib olingan tashkilotlarning oxirgisi faoliyati to'xtatilgani haqida va boshqalar».

Demak, ushbu hujjatlar mavjud bo'lganidagina qayta tashkil etish maqsadida moliyaviy hisobotlarni shakllantirishga kirishish mumkin.

Yuridik shaxslarni qayta tashkil etishga doir normativ-huquqiy hujjatlar hamda mavjud ilmiy-uslubiy manbalarni o'rganish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Yuridik shaxslarni qayta tashkil etishga doir qonunchilik va qonunosti hujjatlari xilma-xil bo'lib, ular qayta tashkil etishning shakllari va amalga oshirish normalari bilan cheklangan. Ammo ularda «yuridik shaxslarni qayta tashkil etish» tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida ta'riflanmagan.
2. Qayta tashkil etishning har bir turini (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) amalga oshirishning tashkiliy-uslubiy ta'minoti qonunosti normativ hujjatlar va uslubiy tavsiyalari bilan rivojlantirilmagan.
3. Qonunchilik va qonunosti normativ hujjatlarida keltirilgan tashkiliy-farmoyish hujjatlarining (masalan, qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shartnomasi, qo'shib yuborish yoki qo'shib olish to'g'risida majlis bayonnomasi, topshirish dalolatnomasi va b.) namunaviy shakllari hamda ularni rasmiylashtirish tartibi ishlab chiqilmagan.
4. Yuridik shaxsni qayta tashkil etish jarayoni universal huquqiy vorislik asosida amalga oshiriladi, bunda huquq va majburiyatlar qayta tashkil etilgan subyektlarga qonunchilikda belgilangan tartibda o'tadi.
5. Amaldagi normativ bazada qayta tashkil etish bo'yicha yagona uslubiy ko'rsatmalarning mavjud emasligi amaliyotda turli yondashuvlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

23-sonli BHMS va IFRS 3 o'rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida ularning asosiy konseptual va uslubiy jihatlari qiyosiy tahlil qilindi (2-jadval).

Qiyosiy tahlil natijalari milliy hisob tizimi va IFRS 3 o'rtasida konseptual hamda uslubiy farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Eng muhim farqlar nazorat konsepsiyasi, sotib olish usuli, adolatli qiymatni baholash va gudvill hisobi bilan bog'liqdir.

O'tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 23-sonli BHMS qayta tashkil etish jarayonining huquqiy va tashkiliy jihatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lsa, MHXS (IFRS) 3 biznes birlashuvlarining iqtisodiy mazmunini moliyaviy hisobotlarda aks ettirishga yo'naltirilgan. Ayniqsa, sotib olish usulini qo'llash, nazorat tushunchasini aniqlash, aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymat bo'yicha baholash, gudvillni tan olish hamda keng qamrovli ochiqlash talablari xalqaro standartning asosiy ustunliklari hisoblanadi.

Tahlil natijalari O'zbekiston amaliyotida biznes birlashuvlarini hisobga olish sohasida bir qator metodologik bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, xaridorni aniqlash, sotib olish bahosini taqsimlash (Purchase Price Allocation), gudvillni hisobga olish, shartli to'lovlarni baholash va nomoddiy aktivlarni identifikatsiya qilish masalalari milliy standartlarda yetarlicha yoritilmagan. Bu holat biznes birlashuvlari natijalarining moliyaviy hisobotlarda to'liq va haqqoniy aks ettirilmasligiga olib kelishi mumkin.

Shu munosabat bilan 23-sonli BHMSni IFRS 3 talablari asosida takomillashtirish, xususan, sotib olish usulini joriy etish, adolatli qiymatni baholash mexanizmlarini kengaytirish, gudvill hisobi bo'yicha milliy uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish hamda ochiqlash talablarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar biznes birlashuvlari bo'yicha moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, ishonchligi



va xalqaro taqqoslanuvchanligini oshirish orqali mamlakatning investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval

23-sonli BHMS «Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish» va MHXS (IFRS) 3 «Biznes birlashuvlari»ning qiyosiy tahlili

№	Taqqoslash mezonlari	23-sonli BHMS talabi	IFRS 3 talabi	Muammo va farqlar	Takomillashtirish yo'nalishi
1	Standartning maqsadi	Qayta tashkil etish jarayonida moliyaviy hisobotni shakllantirish tartibini belgilaydi	Biznes birlashuvlarini iqtisodiy mazmuni bo'yicha hisobga olishni tartibga soladi	BHMS huquqiy shakliga, IFRS 3 iqtisodiy mazmunga yo'naltirilgan	Iqtisodiy mazmun ustuvorligi tamoyilini kuchaytirish
2	Qo'llanish sohasi	Qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish	Nazoratning bir sub'ektdan boshqasiga o'tishi bilan bog'liq biznes birlashuvlari	BHMSda qayta tashkil etish tushunchasi keng, ammo iqtisodiy nazorat tushunchasi aniq emas	«Nazorat» kategoriyasini kiritish
3	Biznes birlashuvini aniqlash	Aniq mezonlar belgilanmagan	Biznes va aktivlar yig'indisi o'rtasida aniq farq belgilangan	Ayrim operatsiyalarni noto'g'ri tasniflash xavfi mavjud	IFRS 3 dagi biznes ta'rifini implementatsiya qilish
4	Xaridorni (Acquirer) aniqlash	Ko'zda tutilmagan	Xaridorni aniqlash majburiy	Qayta tashkil etish natijalarini baholashda noaniqlik yuzaga keladi	Xaridorni aniqlash mezonlarini joriy etish
5	Hisobga olish usuli	Turli usullardan foydalanish mumkin	Faqat sotib olish usuli	Hisobotlarning xalqaro taqqoslanuvchanligi cheklanadi	Sotib olish usulini asosiy usul sifatida qabul qilish
6	Sotib olish sanasi	Aniq tartib belgilanmagan	Nazorat o'tgan sana hisoblanadi	Aktiv va majburiyatlarni tan olishda farqlar yuzaga keladi	Nazorat sanasi tushunchasini kiritish
7	Aktivlarni baholash	Balans qiymati yoki boshqa baholar	Haqqoniy qiymat asosida baholash	Real iqtisodiy qiymat aks etmasligi mumkin	Adolatli qiymat baholash mexanizmlarini joriy etish
8	Majburiyatlarni baholash	Balans qiymati asosida	Adolatli qiymat bo'yicha	Qarzlarning haqiqiy bozor qiymatida aks etmaydi	Haqqoniy qiymat konsepsiyasini kengaytirish
9	Nomoddiy aktivlarni tan olish	Aniq tartib mavjud emas	Alohida identifikatsiya qilinadi	Brend, litsenziya va texnologiyalar hisobotda aks etmay qolishi mumkin	Nomoddiy aktivlarni alohida tan olish tartibini ishlab chiqish
10	Gudvill hisobi	Amalda tartibga solinmagan	Majburiy hisoblanadi	Biznes qiymatining muhim qismi hisobotdan tashqarida qoladi	Gudvill bo'yicha maxsus milliy yo'riqnoma qabul qilish
11	Arzon sotib olishdan foyda	Mavjud emas	Bargain Purchase Gain hisoblanadi	Moliyaviy natija to'liq aks etmaydi	IFRS 3 mexanizmini joriy qilish
12	Shartli to'lovlar (Contingent Consideration)	Ko'rsatilmagan	Adolatli qiymatda tan olinadi	Kelajak majburiyatlari hisobotdan chetda qolishi mumkin	Shartli to'lovlarni hisobga olish tartibini ishlab chiqish
13	Qayta tashkil etish xarajatlari	Aniq tartib belgilanmagan	Davr xarajati sifatida tan olinadi	Amaliyotda turlicha yondashuvlar mavjud	Yagona hisob siyosati shakllantirish
14	Konsolidatsiyalashgan hisobot bilan bog'liqligi	BHMS-8 bilan bog'liq	IFRS 10 bilan uzviy bog'liq	Konsolidatsiya jarayonida farqlar yuzaga keladi	IFRS 3 va IFRS 10 uyg'unligini ta'minlash
15	Ochiqlash (Disclosure) talablari	Cheklangan axborot taqdim etiladi	Keng qamrovli ochiqlov talab qilinadi	Investorlar uchun axborot yetarli emas	Ochiqlash talablarini kengaytirish
16	Investorlar uchun axborot qiymati	O'rta darajada	Yuqori darajada	Xorijiy investorlar uchun ma'lumotlar yetarli emas	Xalqaro talablarga muvofiqlashtirish
17	Xalqaro taqqoslanuvchanlik	Cheklangan	To'liq ta'minlanadi	Investitsiya muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi	IFRS 3 talablarini milliy tizimga integratsiya qilish



Olib borilgan qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda biznes birlashuvlarini hisobga olish sohasida milliy hisob tizimi va MHXS (IFRS) 3 talablari o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. Ushbu tafovutlar, birinchi navbatda, aktiv va majburiyatlarni baholash, sotib olish bahosini taqsimlash (Purchase Price Allocation), nomoddiy aktivlarni identifikatsiya qilish hamda gudvillni hisobga olish bilan bog'liq masalalarda namoyon bo'ladi. Natijada biznes birlashuvlari jarayonida shakllantiriladigan moliyaviy hisobotlarda iqtisodiy mazmunning to'liq aks ettirilmasligi investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun qaror qabul qilish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

IFRS 3 standartiga muvofiq biznes birlashuvlari natijasida qabul qilinadigan aktiv va majburiyatlar sotib olish sanasida haqqoniy qiymat (Fair Value) bo'yicha baholanishi lozim. Milliy amaliyotda esa aktivlarning asosiy qismi balans qiymati bo'yicha hisobga olinadi. Bu holat, ayniqsa, yuqori texnologiyali korxonalar, moliya institutlari va intellektual mulk ulushi yuqori bo'lgan tashkilotlarda haqiqiy iqtisodiy qiymat bilan buxgalteriya hisobida aks ettirilgan qiymat o'rtasida katta farqlarni yuzaga keltirishi mumkin. IFRS Foundation tomonidan ta'kidlanganidek, haqqoniy qiymat baholashi biznes birlashuvlari natijalarini obyektiv aks ettirish hamda investorlarga taqqoslanuvchan axborot taqdim etishning muhim vositasi hisoblanadi.

Biznes birlashuvlarini hisobga olishdagi eng murakkab masalalardan biri sotib olish bahosini taqsimlash (Purchase Price Allocation – PPA) jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonda xarid qilingan korxonaning identifikatsiya qilinadigan aktivlari va majburiyatlari haqqoniy qiymat bo'yicha baholanib, sotib olish bahosi bilan taqqoslanadi. M.K. Bepari va A.T. Mollik tadqiqotlariga ko'ra, PPA jarayonida brend, mijozlar bazasi, litsenziyalar, texnologiyalar va boshqa nomoddiy aktivlarni alohida tan olish investorlar uchun taqdim etiladigan moliyaviy axborot sifatini oshiradi. Biroq milliy hisob amaliyotida mazkur aktivlarni alohida baholash va hisobga olish bo'yicha aniq uslubiy yondashuv mavjud emas. Natijada biznes birlashuvlari vaqtida shakllanadigan iqtisodiy resurslarning muayyan qismi moliyaviy hisobotlarda to'liq aks etmasligi mumkin.

Biznes birlashuvlarida nomoddiy aktivlarni hisobga olish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiyotda korxonalar qiymatining muhim qismi brend, patent, litsenziya, dasturiy ta'minot, texnologiya va mijozlar munosabatlari kabi nomoddiy resurslar hissasiga to'g'ri keladi. IFRS 3 talablariga muvofiq ushbu aktivlar identifikatsiya qilinadi va haqqoniy qiymat bo'yicha alohida tan olinadi. Milliy hisob tizimida esa mazkur aktivlarni baholash va tan olish mexanizmi yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli ularning muayyan qismi gudvill tarkibida qolib ketishi yoki umuman hisobotda aks etmasligi mumkin.

Biznes birlashuvlarini hisobga olishdagi eng muhim masalalardan yana biri gudvillni tan olish va keyingi hisobga olish tartibi hisoblanadi. IFRS 3 talablariga muvofiq gudvill sotib olish bahosi bilan xarid qilingan korxonaning identifikatsiya qilinadigan sof aktivlarining haqqoniy qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi. Gudvill korxonaning brend qiymati, bozordagi mavqei, mijozlar bazasi, boshqaruv salohiyati va boshqa identifikatsiya qilib bo'lmaydigan iqtisodiy afzalliklarni o'zida mujassamlashtiradi. M. Hamberg, M. Paananen va J. Novak tadqiqotlariga ko'ra, IFRS 3 joriy etilgandan keyin gudvill amortizatsiyasidan voz kechilib, uni qadrsizlanish bo'yicha testdan o'tkazish amaliyoti moliyaviy hisobotlarning iqtisodiy mazmunini kuchaytirgan. Biroq M. Glaum, W.R. Landman va S. Wyrwalar ta'kidlaganidek, qadrsizlanish testlarini amalga oshirish jarayonida rahbariyatning subyektiv baholari yuqori ulushni tashkil qilishi mumkin.

O'zbekiston amaliyotida esa gudvillni hisobga olishning yaxlit metodologiyasi shakllanmagan. Amaldagi 23-sonli BHMSda gudvillni tan olish, baholash va qadrsizlanishini aniqlash bo'yicha maxsus talablar mavjud emas. Natijada biznes birlashuvlari jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy sinergiya va nomoddiy qiymatning muayyan qismi moliyaviy hisobotlarda to'liq aks etmay qolishi mumkin. Bu holat investorlar va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar uchun taqdim etiladigan axborotning ishonchligi hamda taqqoslanuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli milliy hisob tizimida IFRS 3 va IAS 36 talablari asosida gudvillni tan olish, baholash va qadrsizlanish testini o'tkazishning uslubiy mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida biznes birlashuvlarini hisobga olish sohasida bir qator institutsional va uslubiy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birinchidan, 23-sonli BHMSni IFRS 3 talablari bilan uyg'unlashtirish va unga nazorat (control), sotib olish usuli (Acquisition Method), sotib olish bahosini taqsimlash (PPA) hamda haqqoniy qiymatni baholash mexanizmlarini kiritish lozim. Ikkinchidan, biznes birlashuvlari jarayonida nomoddiy aktivlarni baholash bo'yicha milliy uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, IFRS 3 talablarini milliy amaliyotga bosqichma-bosqich implementatsiya qilish biznes birlashuvlari bo'yicha moliyaviy hisobotlarning ishonchligi va xalqaro taqqoslanuvchanligini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda O'zbekiston iqtisodiyotining global moliya bozorlariga integratsiyalashuvini jadallashtirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Biznes birlashuvlarini hisobga olishda gudvillni tan olish va keyingi baholash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotda gudvill biznes birlashuvining muhim natijasi sifatida e'tirof etilib, uning qadrsizlanishini muntazam baholash va moliyaviy hisobotlarda keng ochib berish talab etiladi. Milliy hisob amaliyotida esa mazkur masala yetarli darajada tartibga solinmagan. IFRS 3 va milliy amaliyotda gudvillni

hisobga olishga doir asosiy yondashuvlarning qiyosiy tavsifi 3-jadvalda keltirilgan (3-jadval).


3-jadval

MHXS (IFRS) 3 va milliy amaliyotda gudvillni hisobga olish tartibining qiyosiy tavsifi²

Ko'rsatkich	IFRS 3	Milliy amaliyot
Gudvilni tan olish (Goodwill recognition)	+	-
Qadrsizlanishga tekshirish (Impairment test)	+	-
Ma'lumotlarni ochib berish (Disclosure)	+	qisman

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xalqaro standartlarda gudvill biznes birlashuvining ajralmas elementi sifatida tan olinadi va IAS 36 talablariga muvofiq muntazam ravishda qadrsizlanish bo'yicha testdan o'tkaziladi. Shuningdek, gudvillga oid axborotlarni moliyaviy hisobotlarda ochib berish bo'yicha aniq talablar belgilangan. Milliy amaliyotda esa gudvillni tan olish, uning qadrsizlanishini baholash hamda ochiqlash tartiblari to'liq shakllanmagan. Bu holat biznes birlashuvlari natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy afzalliklarning moliyaviy hisobotlarda to'liq aks etmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Mazkur holat milliy hisob tizimida IFRS 3 va IAS 36 talablari asosida gudvillni hisobga olish bo'yicha maxsus uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqorida aniqlangan muammolar tahlili shuni ko'rsatadiki, biznes birlashuvlarini hisobga olish sohasida milliy amaliyotni MHXS (IFRS) 3 talablari bilan uyg'unlashtirish bosqichma-bosqich yondashuvni talab etadi. Bunda biznes birlashuvini identifikatsiya qilishdan boshlab moliyaviy hisobotlarda axborotni ochib berishgacha bo'lgan jarayonlarni yagona metodologik tizim sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu munosabat bilan O'zbekistonda MHXS (IFRS) 3 talablarini joriy etishning bosqichli modeli ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda IFRS 3 talablarini joriy etishning bosqichli modeli³

1-rasmda keltirilgan model biznes birlashuvlarini hisobga olish jarayonini izchil va o'zaro bog'liq bosqichlar asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Modelning birinchi bosqichida biznes birlashuvining mavjudligi aniqlanadi va xaridor korxonaga belgilanadi. Keyingi bosqichda sotib olinayotgan aktiv va majburiyatlar haqqoniy qiymat bo'yicha baholanib, sotib olish narxi identifikatsiya qilinadigan aktivlar va majburiyatlar o'rtasida taqsimlanadi. Ushbu jarayon natijasida gudvill yoki manfiy gudvill aniqlanadi.

Modelning muhim jihatlaridan biri gudvillni hisoblashdan keyin uning qadrsizlanishini baholash bosqichining kiritilganligidir. Bu yondashuv IAS 36 talablariga muvofiq bo'lib, biznes birlashuvidan keyin shakllangan iqtisodiy

² muallif tomonidan IFRS 3 va IAS 36 standartlari asosida tuzilgan.

³ muallif tomonidan IFRS 3 va IFRS 10 standartlari asosida ishlab chiqilgan.



afzalliklarning haqiqiy qiymatini muntazam baholash imkonini beradi. Keyingi bosqichda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot yoki birlashuv balansi shakllantiriladi hamda moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun zarur bo'lgan axborotlarni ochib berish ta'minlanadi.

Taklif etilayotgan mazkur modelni milliy amaliyotga joriy qilish biznes birlashuvlarini hisobga olish jarayonini xalqaro standartlar talablariga yaqinlashtirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchligi va taqqoslanuvchanligini oshirish hamda investorlar uchun axborot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda korxonalarni qayta tashkil etish jarayonida biznes birlashuvlarini hisobga olish amaliyoti hamda MHXS (IFRS) 3 «Biznes birlashuvlari» standarti talablari o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Xususan, milliy hisob tizimida qayta tashkil etish jarayonlari asosan huquqiy shakl nuqtayi nazaridan tartibga solingan bo'lib, biznes birlashuvlarini iqtisodiy mazmun asosida hisobga olishga oid uslubiy yondashuvlar yetarli darajada rivojlanmagan. Qiyosiy tahlil natijalari xaridorni aniqlash, sotib olish usulini qo'llash, aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymatda baholash, gudvillni hisobga olish hamda ochiqlash talablari bo'yicha milliy va xalqaro yondashuvlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi.

Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, 23-sonli BHMS qayta tashkil etishning huquqiy va tashkiliy jihatlarini tartibga solishga qaratilgan bo'lsa, IFRS 3 biznes birlashuvlarining iqtisodiy mazmunini moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirishga yo'naltirilgan. Shu sababli milliy hisob tizimida nazorat konsepsiyasi, Acquisition Method, Purchase Price Allocation, Goodwill va Fair Value kabi muhim kategoriyalarning to'liq implementatsiya qilinmaganligi moliyaviy hisobotlarning xalqaro taqqoslanuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biznes birlashuvlarini hisobga olish sohasida xalqaro standartlar talablarini milliy amaliyotga uyg'unlashtirish hisobot sifati va investitsion muhit samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- 23-sonli BHMSni IFRS 3 talablari asosida qayta ko'rib chiqish va biznes birlashuvlarini hisobga olish bo'yicha maxsus milliy standart ishlab chiqish;
- biznes birlashuvlarini hisobga olishda Acquisition Method usulini qo'llashning uslubiy tartibini joriy etish;
- aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymatda baholash hamda Purchase Price Allocation jarayonini amalga oshirish bo'yicha milliy uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqish;
- gudvillni tan olish, baholash va qadrsizlanishini testdan o'tkazish tartibini milliy hisob amaliyotiga joriy qilish.

Taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida biznes birlashuvlari bo'yicha moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, ishonchligi va xalqaro taqqoslanuvchanligi oshadi. Bu esa xorijiy va mahalliy investorlar uchun axborot sifatini yaxshilash, investitsion xatarlarni kamaytirish, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish hamda O'zbekistonning xalqaro kapital bozorlaridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish imkonini beradi. Shuningdek, milliy hisob tizimining xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bilan uyg'unlashuv darajasi yuksalib, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – URL: <https://www.lex.uz/acts/111189>
2. Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish: 23-sonli BHMS. – URL: <https://lex.uz/docs/7045426>
3. IFRS Foundation. *IFRS 10 Consolidated Financial Statements*. – London: IFRS Foundation, 2024.
4. IFRS Foundation. *IFRS 3 Business Combinations*. – London: IFRS Foundation, 2024. – 198 p.
5. Abdurasulov J. Korxonalarni qo'shib yuborish jarayonida faoliyati tugatilayotgan korxonalar moliyaviy hisobotini MHXS asosida shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari // *Green Economy and Development*. – 2025. – Vol. 3. – No. 12. – DOI: 10.5281/zenodo.18208182.
6. Bain & Company. *Looking Back at M&A in 2025: Behind the Great Rebound* [Elektron resurs]. – Boston: Bain & Company, 2025. – URL: <https://www.bain.com/insights/looking-back-at-m-and-a-report-2026/>
7. Bain & Company. *M&A Report 2026* [Elektron resurs]. – Boston: Bain & Company, 2026. – URL: <https://www.bain.com/insights/topics/m-and-a-report/>
8. Bepari M.K., Mollik A.T. Effect of IFRS Adoption and Goodwill Accounting on Financial Reporting Quality // *Accounting Research Journal*. – 2017. – Vol. 30. – No. 3. – P. 316–337.
9. Deloitte. *iGAAP 2024. A Guide to IFRS Reporting. Business Combinations*. – London: Deloitte, 2024.
10. Glaum M., Landsman W.R., Wyrwa S. Goodwill Impairment: The Effects of Public Enforcement and Monitoring by Institutional Investors // *The Accounting Review*. – 2018. – Vol. 93. – No. 6. – P. 149–180.



11. Hamberg M., Paananen M., Novak J. The Adoption of IFRS 3: The Effects of Abolishing Goodwill Amortization // *Journal of Accounting and Public Policy*. – 2011. – Vol. 30. – No. 2. – P. 141–164.
12. Khan M., Al-Amri K., Rauf F. A Review of the Financial Reporting and Governance Impacts of Business Combinations // *Journal of Risk and Financial Management*. – 2025. – Vol. 18. – No. 7.
13. London Stock Exchange Group (LSEG). *Deals Intelligence Review of Global Mergers and Acquisitions 2025* [Elektron resurs]. – London: LSEG, 2025. – URL: <https://solutions.lseg.com/DealsReports2025>
14. Mavlonov F.O. Biznes subyektlar faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish tushunchasi // *Journal of Marketing, Business and Management*. – 2024. – № 1. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/biznes-subyektlar-faoliyatini-qayta-tashkil-etish-va-tugatish-tushunchasi>
15. PricewaterhouseCoopers (PwC). *Global M&A Industry Trends: 2024 Outlook* [Elektron resurs]. – London: PwC, 2024. – URL: <https://www.pwc.com/gx/en/services/deals/trends/2024.html>
16. PricewaterhouseCoopers (PwC). *Global M&A Industry Trends: 2025 Outlook* [Elektron resurs]. – London: PwC, 2025. – URL: <https://www.pwc.com/gx/en/services/deals/trends/2025.html>
17. PwC. *Business Combinations and Noncontrolling Interests: Application Guide*. – London: PwC, 2024.
 - a. Исманов И.Н. Консолидациялашган ҳисобот тузиш ва тақдим этишнинг моҳияти ва мақсади // *Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар*. Илмий-методологик ва илмий-услубий журнал. – 2021. – № 5 (сентябрь–октябрь). – Б. 151–157.
18. Эралиев А.К. Консолидациялашган молиявий ҳисобот тузишнинг назарий ва методологик асослари // *Иқтисодиёт ва социум*. – 2021. – № 7 (86). – Б. 559–563.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>